

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2020-3/2**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2020**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Тахрир ҳайати:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

*Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.*

*Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.*

*Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.*

*Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.*

*Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.*

*Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д., к.и.х.*

*Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.*

*Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.*

*Қодиров Шавкат Юлдашевич, қ/х.ф.н.*

*Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.*

*Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.*

*Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.*

*Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.*

*Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.*

*Рўзимбоев Сапарбой, ф.ф.д., проф.*

*Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.*

*Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.*

*Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.*

*Сотипов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.*

*Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик*

*Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.*

*Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.*

*Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.*

*Ўразбоев Файрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.*

*Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.*

*Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.*

*Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/2(59), Хоразм Маъмун академияси, 2020 й. – 102 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2020

## МУНДАРИЖА

### ТАРИХ ФАНЛАРИ

<b>Matchanova B.I.</b> Ilm-fan taraqqiyotida ziyoli ayollarning o`rni .....	5
<b>Matyaqubov T.S.</b> O`zbekiston tarixida xorazmliklar .....	7
<b>Nurmamatov J.Q.</b> Buyuk Xorazmshohlar davlati va arab xalifaligi o`rtasidagi diplomatik munosabatlar .....	9
<b>Turabayeva Ya.</b> Culture of modern economic conduct in Uzbekistan .....	11
<b>Абдалов У.М.</b> Ўзбекларнинг дафн маросимларида зардуштийлик излари .....	13
<b>Боқиев А.А., Йўлдошева З.Х.</b> Ўзбекистон тарихини даврлаштириш муаммоси ва цивилизация қарашлар .....	18
<b>Нуруллаева Н. К.</b> Из истории изучения этнографии народов Хорезмского региона .....	26
<b>Тўраев А.И.</b> Туркманларни анъанавий хўжалиги ва оила-никоҳ масалалари .....	28

### ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<b>Abdumajidova D.</b> Interactive technologies in the teaching foreign language .....	32
<b>Alimova K.</b> Communicative methodology of teaching foreign language .....	34
<b>Baybabayeva Sh.</b> Innovative methods of teaching foreign languages .....	36
<b>Eshankulova L.</b> Modern methods of teaching english .....	37
<b>Hodjayeva S.</b> Theoretical foundations of the case study method in teaching english for special purposes .....	39
<b>Inagamova U.</b> The use of innovative - cognitive technologies in teaching grammar in foreign language lessons .....	41
<b>Irgasheva S.I.</b> Methods of teaching foreign language as a science .....	43
<b>Ismailova M.</b> Modern lesson in the teaching foreign language .....	45
<b>Jo`rayeva N.</b> Evfemizm, yohud yumshoq muomala fransuz ayollari talqinida .....	46
<b>Khodjayeva D.I., Khusenova M.U.</b> Lexicographic analysis of phonetic terms “Monophthongs, digphthongs and triphthongs” in the uzbek and english languages .....	50
<b>Mirvohidova M.</b> The problem of alternative choice of different methods in the process of english language teaching .....	54
<b>Nuritdinova S.</b> Methods of project work in english lessons .....	55
<b>Nusratullaeva Sh.</b> Innovative pedagogical technologies of teaching foreign language .....	57
<b>Odinayeva N.</b> The phenomenon of polysemy in the english language .....	59
<b>O`sarov I.K., Sanoqulova N. Sh.</b> Ingliz va o`zbek tillarida sintaktik stilistik vositalarning qiyosiy tahlili .....	61
<b>Pardayeva Z.</b> Modern methods and technologies of teaching foreign languages in higher education .....	64
<b>Radjabova D.R.</b> Motivation in learning foreign language .....	66
<b>Rahimjonova M.</b> Modern methods of teaching foreign languages in higher education .....	68
<b>Sherjanova M.B.</b> How to improve pronunciation of english language? .....	69
<b>Tursunova D.</b> Methods of project work in english lessons .....	70
<b>Yunusova M.</b> Case-study method as a modern technology of professionally-oriented training of students .....	72
<b>Бурибаева А.И.</b> Усовершенствование творческой активности будущих учителей при обучении иностранному языку .....	74

<b>Джабборов Р.М.</b> Хаттот-шоир Абдурраҳим Хоразмийнинг ҳаёти ва ижоди .....	76
<b>Жамаҳматов К., Бобохужаев С.</b> Ҳожи Муҳаммад Шаҳдийнинг ўзбек тилида ёзилган ғазаллари ва унинг моҳияти .....	79
<b>Матназаров Ж.К.</b> Матназар Абдулҳаким шеърляти плеоназм бадий восита сифатида	84
<b>Муҳаммедова Н.</b> Феминизмнинг инглиз адабиётида акс этиши .....	87
<b>Туропова П.</b> Ижодкорнинг услубий ўзига хослиги .....	89

#### **ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<b>Зарипова М.Д.</b> Компетентлик ёндашуви асосида таълим сифатини таъминлаш ва уни баҳолашнинг математик методлари .....	94
---	----

#### **ВИЛОЯТ СТАТИСТИКА БОШҚАРМАСИ ХАБАРЛАРИ**

<b>Махкамов Б.</b> Республикамизда 2022 йилда аҳолини рўйхатга олиш тартиби, моҳияти ва унинг истиқболлари .....	100
<b>Махкамов В.</b> Aholini ro'yxatga olish mazmun mohiyati to'g'risida .....	101

independently work on a task based on the country studies literature recommended by the teacher, and prepare questions that they want to get answers to. Preparing and conducting a lesson of this type encourages students to further study a foreign language, contributes to the deepening of knowledge as a result of working with various sources, and broadens their horizons.

7. Lesson-essay. A modern approach to learning a foreign language involves not only acquiring some amount of knowledge on the subject, but also the production of own position, own relation to the reading, discussion: empathy, pairing, and its author's "I". The dictionary of short literary terms treats the concept of "essay" as a kind of essay in which the main role is played not by the reproduction of a fact, but by the image of impressions, thoughts, and associations. In foreign language lessons, students analyze the chosen problem and defend their position. Students should be able to critically evaluate the read works, express their thoughts on the problem in writing, learn to defend their point of view and consciously make their own decision. This form of lesson develops students' mental functions, logical and analytical thinking, and, importantly, the ability to think in a foreign language.

8. Integrated foreign language lesson. Intersubject integration makes it possible to systematize and generalize students' knowledge in related academic subjects. Research shows that increasing the educational level of learning through intersubject integration enhances its educational functions. This is especially noticeable in the field of humanitarian subjects. The main goals of integration of a foreign language with humanitarian disciplines are: improvement of communicative and cognitive skills aimed at systematization and deepening of knowledge and exchange of this knowledge in the conditions of foreign language speech communication; further development and improvement of the aesthetic taste of students.

9. Video lesson. It is very difficult to acquire communicative competence in a foreign language without being in the country of the language being studied. Therefore, an important task of the teacher is to create real and imaginary situations of communication in a foreign language lesson using various methods of work. In these cases, authentic materials, including videos, are of great importance. Their use facilitates implementation of the most important requirements of a communicative technique - to present process of mastering by language as comprehension of live foreign-language culture. Another advantage of the video is its emotional impact on students. Therefore, attention should be directed to the formation of students' personal attitude to what they see. The use of video also helps to develop various aspects of students' mental activity, especially attention and memory.

10. In the context of the implementation the project activity of students is of particular importance. The project method is aimed at developing active independent thinking of students and teaching them not just to remember and reproduce knowledge, but to be able to apply it in practice. The project methodology assumes a high level of individual and collective responsibility for each project development task. However, whatever form the lessons take, the important final stage of each lesson should be reflexive activity.

That is, the reflexive approach helps students remember, identify and understand the main components of the activity – its meaning, types, methods, problems, ways to solve them, the results obtained, and then set a goal for further work. Based on the above, we can conclude that the transition to a new educational standard helps the teacher to encourage students to "master key competencies, methods, ways of thinking and activities based on the development of their abilities", as well as "assessment to enable the student to plan the process of achieving educational results and improve them in the process of constant self-assessment".

#### REFERENCES:

1. Polat E. S. Method of projects in foreign language lessons. Moscow: Foreign languages in school, 2000.
2. Polat E. S. multi-Level training. Moscow: Foreign languages in the secondary school, 2001.
3. Starina A. G. English. Competence approach in teaching. Uchitel Publishing House, Volgograd, 2011.

**O'UK 81.11**

**EVFEMIZM, YOHUD YUMSHOQ MUOMALA FRANSUZ AYOLLARI TALQINIDA**

*N. Jo'rayeva, magistrant, BuxDU, Buxoro*

*Annotatsiya. Mazkur maqola evfemizm tushunchasi, mazkur tushunchaning tilshunoslikdagi o'rni, gender lingvistikasi, shuningdek fransuz ayollarining evfemik birliklardan foydalanishdagi o'ziga xos xususiyatlarni yoritib beradi.*

**Kalit so'zlar:** *evfemizm, gender lingvistikasi, disfemizm, evfemik guruh.*

**Аннотация.** В данной статье освещаются понятия эвфемизма, его роль в лингвистике, гендерная лингвистика и особенности использования эвфемизма французскими женщинами.

**Ключевые слова:** *эвфемизм, гендерная лингвистика, дисфемизм, эвфемическая группа.*

**Abstract.** This article is devoted to the notion of euphemism, its role in linguistics, gender linguistics, and the particularities of the use of euphemism by French women.

**Key words:** *euphemism, gender linguistics, dysphemism, group of euphemisms.*

Asrlar davomida lingvistika dunyoni qabul qilish va uning aks etilish xususiyatlarini o'rganib kelmoqda. Bunda olimlarning asosiy diqqat markazi jamiyatning turli rivojlanish davrlariga qaratiladi. Muloqot jarayonida inson jamiyat tomonidan "yovuz" yoki "yomon" deb qabul qilingan voqea va hodisalarni yumshatib aks ettirishga intilgan. Bular ishsizlik, ocharchilik, kasalliklar, zo'ravonlik, urushlar kabi insonga azob beruvchi holatlarda o'z ifodasini topgan. Jamiyatning ijtimoiy davrlarida inson muloqot jarayonidagi murakkab vaziyatlarni chetlab o'tishga va bu holatlarni evfemizmlar bilan yumshatib, almashtirishga urinib kelgan. Bu esa nutqni ishonarli va chiroyli ohangda chiqishiga xalaqit bermagan. Tilshunoslik adabiyotlarida evfemizm tushunchasiga oid ko'plab fikrlar mavjud. E.Tyurina evfemizmga quyidagicha ta'rif beradi: "Evfemizm bu - aytilishi noqulay bo'lgan til birliklarining, ba'zi hollarda esa qaysidir jihatdan ta'qiqlangan, odobsiz deb topilgan qo'pol, dag'al, yoqimsiz so'z va iboralarning boshqa so'z va ifodalar bilan pardali, yumshoq aks ettirilishidir" [1:28]. Olima I.Zabodkina shunday yozadi: "Evfemizm o'zida ko'plab ijobiy xislatlarni jamlaydi bular: xushmuomilalik, nazokat, muloyimlik, odob va h.k." [2:52]. S.Brunet shuni qayd etadiki evfemizm birliklarining kuchayishi, yoki o'ta xushmuomilalik, demokratik normaga zid bo'lib, ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi [3: 235]. Bugungi kunda tilshunoslar orasida evfemizmga oid yakdil fikr mavjud emas. Evfemizmga izoh berishda uning qo'pol, dag'al, yoqimsiz, aytish noqulay bo'lgan so'z o'rni ishlatiladigan, pardali, so'z yoki ibora ekanligi aytiladi. Olima N.S. Arapova evfemizmni "Qo'pol, yoqimsiz haqiqatni yumshoq yoki obrazli ifodalamoq",- deb aytadi [4: 231]. I.R. Galperin esa evfemizm haqida "Evfemizm bu- so'z yoki gap bo'lib, yoqimsiz so'zni almashtirish, uni muqobil holatda ifodalash uchun ishlatiladi", - deb yozadi [5: 29]. L. Krisin yozadi: "Evfemistik almashuv kommunikativ konfliktlar va omadsizliklardan qochish uchun ishlatiladi yoki qo'llaniladi, bu esa suhbatdosh bilan kommunikativ noqulayliklar keltirib chiqarmaydi" [6: 65]. I.L. Vasilyevich evfemizmni ijtimoiy munosabatlarda yoqimsiz so'z va ifodalardan qochish deb xarakterlaydi [7: 242].

Maqolamizda evfemizmga yoqimsiz, qo'pol so'z va iboralarning boshqa unga sinonim bo'lgan so'z va iboralar bilan ifodalanadigan uslubiy neytral, pardalovchi birlik sifatida qaraladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayollar nutqida evfemizmlarning ishlatilishi o'ziga xos ahamiyatga ega. Qadim zamonlardan buyon ayollar va erkaklar nutqida ayni bir tushuncha turli xil so'z va iboralar bilan ifodalanadi. Bugungi kunda gender lingvistikasi shu sohani maxsus keng miqyosda o'rganib kelmoqda. Ko'plab tilshunoslar ayollar va erkaklar nutqi bo'yicha tadqiqotlar olib borib, ular nutqidagi asosiy farq bu ayollarning nutq jarayonida xushmuomilalikka intilishi va suhbatdoshi bilan hamkorlikni kuchaytirish istagida ekanligi haqidagi xulosaga kelishdi. O. Espersen ayollar va erkaklar nutqini amaliyotda kuzatib shunday xulosaga keldi: "Ayollar va erkaklar ayni bir mavzuda turli xil fikrlashib, bu mavzuni ifodalash uchun turli xil til unsurlaridan foydalanishadi" [8: 21-23]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollar o'z nutqida evfemik birliklarni qo'llashib, erkaklardan farqli o'laroq salbiy holatlarda qo'pol, dag'al, so'kish iboralarni disfemizm shaklida qo'llashar ekan. Olim R. Lakoff o'zining "Til va Ayollar o'rni" nomli tadqiqotida ayollarning til axloqiga oid xususiyatlarini o'rganadi. Olim shuni ta'kidlaydiki, ayollar nutqidagi o'ziga xoslik barcha nutq jabhalarini, jumladan, leksik, sintaktik, ohang va boshqalarni qamrab oladi. Muallif yana shuni ta'kidlaydiki, ayollarning muloqot jarayonidagi o'ziga ishonmaslik va o'ta xushmuomilalik ijtimoiy tengsizlikning asoratidir [9: 56-62]. S. Debraning fikricha, ayollar faqatgina jamiyatga tegishli bo'lishni istabgina qolmay, balki jamiyat tomonidan o'zlarining tan olinishlari, qo'llab quvvatlanishlarini istashar va shunga harakat qilishar ekanlar. Shuning uchun ular tilga shunchaki muloqot vositasi sifatida qaramay, muloqot jarayoni davomida suhbatdoshi bilan iliq munosabatlar o'rnatishga va bu orqali hamkorlikni kuchaytirishga intilishar ekan [10:64]. A.V. Kirillina ayollarni evfemizm bo'yicha haqiqiy mutaxassislar deb ta'riflab, ayollar nutq jarayonida nazokatsiz, odobdan tashqari so'zlarni qo'llamasliklarini ta'kidlaydi [11: 55].

Fransuz ayollari nutqini mavzular bo'yicha tadqiq qilish jarayonida fransuz ayollarining o'z suhbatdoshi bilan hamkorlikni kuchaytirishini va muhokama jarayonida xushmuomilalik mezoniga amal qilgan holda evfemizlardan foydalanishini kuzatish mumkin. Bu mavzular qatoriga tashqi qiyofa, ortiqcha vazn, teridagi muammolar, yosh, onalik bilan bog'liq bir qancha savollarni kiritish mumkin.

Evfemik guruhlarini tahlil qilinganda, eng katta guruh turli xildagi jismoniy nuqsonlarni berkitadigan, niqoblab ko'rsatadigan evfemik guruhlariga to'g'ri kelar ekan. Bu holat fransuz ayollarining o'z tashqi qiyofasiga, qaddi-qomatiga, yaxshi ko'rinishni istashiga oid e'tiborining yuqori darajada ekanligi bilan izohlanadi. Hamma davrlarda ham ko'pchilik ayollarda ularning tashqi ko'rinishini muhokama qilish dolzarb masala bo'lib kelgan. O'zi haqida gapirayotib ayol o'z ko'rinishini yuqori cho'qqiga ko'targan bo'lsa, aksincha boshqa ayollar haqida gap ketganda ularning kamchiliklarini yashirin shamalar orqali bildirgan. Ortiqcha vazn muammosi fransuz ayollari nutqida juda muhim muammo hisoblanadi. Fransuzlarning ayollar uchun mo'ljallangan jurnallarida ayollarga nisbatan "semiz" so'zini qo'llashda bu so'zning turli so'z qurilmalari yoki iboralar bilan o'zgartirilgan holatda qo'llanganligini ko'rish mumkin. "Semizlik, semiz bo'lmoq" iborasini tog'ridan-to'g'ri aytish o'rniga ular bu so'zni har xil o'rindosh so'zlar orqali ifodalashadi: prendre un kilo «vazn orttirish» = engraisser «to'lishmoq», avoir quelques centimètres en trop «ortiqcha santimetrغا ega bo'lmoq» = être grosse «semiz bo'lmoq», les volumes se sont déplacés «hajmning o'zgarishi» = devenir grosse «yo'g'onlashmoq»:

- Depuis je prends un kilo tous les quinze jours (Elle, 11 juin 2007, p. 208).

- J'ai quelques centimètres en trop dont mon régime ne vient pas à bout (Marie Claire, mai 2007, p. 277).

- Les volumes se sont déplacés et les contours ne sont plus aussi nets (Marie Claire, mai 2007, p. 278).

Bu semantik guruh faol tarzda fransuz reklamalarida xaridorlarni mahsulot olish uchun jalb etish maqsadida ishlatiladi. To'lachadan kelgan ayollarni ranjitmaslik uchun muloyim evfemik ifodalarning ishlatilishini ko'rish mumkin: un corps n'est pas adapté aux vêtements «kiyimlar gavdaga mos kelmaydi» = elle est grosse «u baqaloq» yoki n'importe quelle silhouette «siluetning ahamiyatsizligi» = les grosses femmes «semiz ayollar»:

- Cessons de faire croire à la plupart des femmes que leur corps n'est pas adapté aux vêtements (Elle, 12 mars 2007, p. 10).

- Ce pantalon large convient à n'importe quelle silhouette et permet aussi bien le style marin que bohème (Marie Claire, mai 2007, p. 226).

Tahlil davomida teri nuqsonlarini ifodalash uchun qo'llaniladigan evfemik birliklarni ham uchratish mumkin. Masalan, ayol terisining so'lishini bildirish uchun bu holatni apelsin yoki mandarin po'stlog'iga qiyoslash orqali ifodalanishini kuzatamiz: une peau d'orange, une peau de mandarine «mandarin yoki apelsin terisi» = une peau qui a de la cellulite «sellyulit teri»:

- J'ai quelques centimètres en trop et une peau d'orange (Marie Claire, mai 2007, p. 277).

- A la moindre émotion ma peau ressemble à celle d'une mandarine (Marie Claire, mai 2007, p. 274).

Keyingi evfemik guruh kosmetologiya va plastik jarrohlik jarayoniga aloqador bo'lib, bu guruh oldingi sanab o'tilgan guruhlar bilan chambarchas bog'liq. Chunki ayollarning aynan yaxshi ko'rinishga, soch turmagini, qaddi-qomatini yaxshilashga intilishi ularni turli-tuman kosmetik davolash tadbirlariga borishga undaydi. Chiroyli bo'lmagan, yohud keksayotgan qiyofa va qaddi-qomatni tasvirlash uchun evfemik o'rindoshlar qo'llaniladi. Ayollarni haqorat qilmaslik maqsadida: avoir besoin d'éclat «nurga muhtoj», la peau à bout de souffle «terining oxirgi nafas olishi» = avoir besoin de l'aide de dermatologue «teri kasalliklari shifokoriga muhtoj bo'lmoq», un sérieux coup de jeune «yoshartirishga muhtoj», un sérieux coup de fouet «jiddiy qamchiga (tanbehga) muhtoj» = rajeunir la peau «terini yoshartirmoq»:

- Ma peau a besoin d'éclat mais j'opte pour une manière douce et naturelle (Marie Claire, mai 2007, p. 281).

- J'ai les traits fatigués, ma peau terne, fripée à bout de souffle (Marie Claire, mai 2007, p. 278).

- Pas de temps d'aller chez le dermatologue, pourtant ma peau a besoin d'un sérieux coup de jeune (Marie Claire, mai 2007, p. 278).

- Ma peau terne à besoin d'un sérieux coup de fouet (Marie Claire, mai 2007, p. 278).



Alohida evfemik guruhga ortiqcha vazn yo'qotish uchun har xil usullarga tayyor turadigan ayollarni xarakterlovchi evfemik birliklarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ba'zida bu evfemizmlar kinoyali xususiyatga ega bo'lib, bu muammoga salbiy munosabat bildirishni taqozo etadi. So'nggi paytlarda, uzoq muddat mavjud bo'ladigan go'zalikka munosabat o'zgaryapti. Endilikda go'zal qomatga ega bo'lish uchun modellarning turli-tuman parhezlar orqali o'zini toliqtirishi yoki zaiflantirishi hech qanday zavqlanish uyg'otmaydi. Bu holatlarga bo'lgan salbiy munosabat disfemizm ko'rinishida o'z ifodasini topadi: les filles ont faim «och qolgan qizlar», une fille anorexique «anoreksiyaga uchragan qiz» (ishtahaning yo'qolishi, ishtahadan qolish bilan bog'liq kasallik) = les filles maigres «ozg'in qizlar», les maîtresses sado-maso «o'z-o'zini qiynaydiganlar» = les mannequins «manekenlar» (kiyimlarni namoyish qilish yoki o'lchab ko'rish uchun gavda qolipi):

- Je ne crois pas que les filles qui ont faim soient sexy, au contraire (Elle, 12 mars 2007, p. 108).

- Les maîtresses sado-maso peuplent si souvent les podiums (Elle, 12 mars 2007, p. 13).

- Pour une fois, une femme non anorexique ose montrer ses formes (Elle, 31 juillet 2007, p. 62).

Yana bir evfemik guruh onalik bilan bog'liq turli-xil savollarni yumshatib ifodalash maqsadida ishlatiladi. Bu guruh o'z ichiga «homiladorlik» va «tug'ruq jarayoni» ni qamrab oladi. Evfemizmlarning yaratilish va ishlatilish asosini umume'tirof etilgan axloqqa oid qoidalar, jumladan uyatchanlik kategoriyasi tashkil etadi. «Tug'mas xotin» ni ifodalash uchun quyidagi iboralar qo'llaniladi: ça n'a pas l'air de marcher «nimanidir muvofiq kelmasligi», rien ne marche dans le ventre «qorinda hech nima o'zgarmayapti» = elle ne peut avoir un bébé «u bola ko'ra olmaydi»:

- Je lui ai dit que le bébé ça n'avait pas l'air de marcher et que j'avais besoin de médicaments pour stimuler mon ovulation (Elle, 11 juin 2007, p. 140).

- Je lui ai expliqué que je voulais un bébé mais rien ne marchait dans mon ventre (Elle, 11 juin 2007, p. 141).

Homiladorlikni ifodalash uchun quyidagi konstruksiyalardan foydalaniladi: mon ventre a vécu une vraie petite révolution «mening qornim haqiqiy inqilobni kechirmoqda» = elle est enceinte «u og'iroyoq»:

- Les jours qui ont suivi, mon ventre a vécu une vraie petite révolution (Elle, 11 juin 2007, p. 141).

Agar ayol tug'ruqdan keyin juda to'lishgan va oldingi holatiga qayta olmasa, evfemistik ifodalar quyidagi ko'rinishda ishlatilishi mumkin: retrouver sa silhouette «oldingi holatni qaytarishga harakat qilmoq» = ne pas pouvoir maigrir «oza olmaslik, ozish imkonsiz bo'lmoq»:

- Après mon accouchement je n'arrivais pas à retrouver ma silhouette (Marie Claire, mai 2007, p. 313).

Homiladorlik davrida ayol o'zining tana vazniga e'tibor bermaydi. Ayol uchun eng ahamiyatlisi bu uning bo'lajak bolasining sog'ligi hisoblanadi. Shunga qaramay, ayollar uchun tashqi ko'rinishni ifodalash uchun yumshatish iboralarini qo'llash o'ziga xos ahamiyatlidir. Masalan «semirmoq» so'zini o'zgartirish uchun ular ishlatilishi mumkin bo'lgan barcha sinonimlarni qo'llashadi(o'ylab topishadi), masalan «vazn to'plamoq», (prendre un kilo = engraisser):

- Voici le meilleur moment pour prendre un kilo sans regretter (Elle, 12 mars 2007, p. 208).

Keyingi dolzarb muammo bu ayollarning yosh muammosidir. Ular yoshlarini har qanday yo'llar, jumladan kosmetik vositalar, yohud jismoniy mashqlar yordamida berkitishga harakat qilishadi. «Qarimoq» fe'lining o'rniga ular «40 yosh chegarasidan o'tmoq» konstruksiyasidan foydalanishdi. (passer les 40 ans = devenir vieille = être âgée):

- Si vous avez passé les 40 ans et si vos cheveux sont fins... (Elle, 12 mars 2007, p. 191).

Birgina salbiy bo'yoqdorlikka ega «qarilik alomatlari» degan tushunchani ayollar nutqida uning yumshatilgan shakli, «yoshga oid ilk alomatlar» ko'rinishida ifodalanishini kuzatish mumkin. Masalan, nafaqa yoshida bo'lgan, lekin yaxshi ko'rinishga ega bo'lgan ayollarga ta'rif berish uchun quyidagi evfemik iboralar ishlatiladi: troisième âge «uchinchi davr» = vieille «qari»:

- Miami, comme toutes les villes ensoleillées de bord de mer, mène ma vie dure aux coquettes du troisième âge (Marie Claire, mai 2007, p. 18).



O'z yoshini aniq aytmaslik uchun ayollar quyidagi evfemizmlardan foydalanishadi: les premiers signes de l'âge «yoshning ilk belgilari» = les premiers signes de la vieillesse «qarilikning ilk alomatlari», passer la quarantaine «umrning qirqinchi bahori» = devenir vieille «qari bo'lmoq»:

- Jour après jour, votre peau est plus ferme, elle est efficacement protégée contre les premiers signes de l'âge (Elle, 12 mars 2007, p. 81).

- J'ai passé la quarantaine et je vois bien que les contours de mon visage ne sont plus aussi nets (Elle, 12 mars 2007, p. 277).

Yuqoridagi misollarda ayollar nutqida ularning yosh jarayoni bilan bog'liq so'zlarda ular tomonidan o'ziga xos evfemik ifodalarning jozibador, yumshatilgan holda tus berilishini ko'rish mumkin. Shunday qilib evfemizmi ayollar nutqida o'rganish ahamiyatli bo'lib, ayniqsa ayol zoti nutqni yumshatishga va o'zining hamkorlikdagi faoliyatida evfemistik birliklarni ishlatishga harakat qilgan ekan.

Ayollarning tabiat in'om etgan nazokati til rivojiga ta'sir qilib, aynan ular nutqida evfemik ifodalar o'zining jozibador ko'rinishini olgan ekan.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Тюрина Е. Е. Семантический статус эвфемизмов и их место в системе номинативных средств языка. Н. Новгород, 1998. 127 с.
2. Заботкина В.И. Новая лексика в современном английском языке. - М.: Высшая школа, 1999.- 137 с.
3. Brunet S. Les mots de la fin du siècle. Paris: Edition BÉLIN, 1996. 254 p.
4. Арапова Н.С., Эвфемизмы //Лингвистический энциклопедический словарь –М Просвещение, 1990. - 248 с.
5. Гальперин И.Р. Текст, как объект лингвистического исследования. - М.: КомКнига, 2005. - 144 с.
6. Крысин Л.П. Эвфемизмы в современной русской речи // Русский язык конца XX столетия (1985-1995). - М.: Языки русской культуры, 1996. - С. 64-72.
7. Василевич Е.М. Словарь социолингвистических терминов. - М., 2006. - 312 с.
8. Есперсен О. Язык: его суть, происхождение и развитие. М.: Наука, 1990. 254 с.
9. Лакофф Р. Язык и место женщины. СПб.: Алетейя, 2001. 184 с.
10. Debras S. Des journaux et des femmes // Communication et langage. 1999. № 122. P. 58-71.
11. Кириллина А. В. Развитие гендерных исследований в лингвистике // Филологические науки. 1998. № 2. С. 51-58.

UDC 81-11

### LEXICOGRAPHIC ANALYSIS OF PHONETIC TERMS "MONOPHTHONGS, DIPHTHONGS AND TRIPHONGS" IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

*D.I. Khodjayeva, PhD, BuxDU, Buxoro.*

*M.U. Khusenova, magistrant, BuxDU, Buxoro*

**Annotatsiya.** Bu maqolada terminologiyaning lingvistikadagi roli, fonetik terminlarning leksikografik tahlili va xorijiy tillarni o'rganishda atamalar tahlilining ahamiyati yoritilgan.

**Tayanch so'zlar:** lingvistika, leksikografiya, fonetika, atamalar, monoftonglar, diftonglar, trifftonglar, unli tovushlar.

**Аннотация.** В статье исследуются роль терминологии в лингвистике, лексикографический анализ фонетических терминов и важность анализа терминов в изучении иностранных языков.

**Ключевые слова:** лингвистика, лексикография, фонетика, термины, монофтонги, дифтонги, гласные звуки.

**Abstract.** This article discusses the role of terminology in linguistic, lexicographic analysis of phonetic terms, and the importance of analyzing terms in learning a foreign language.

**Keywords:** Linguistics, lexicographic, Phonetics, terms, monophthongs, diphthongs, triphthongs, vowel sounds.

## I. INTRODUCTION

This article sets out to show similarity and differences of English and Uzbek phonetic terms these are monophthongs, diphthongs, triphthongs, . The work considers phonetic branches of linguistics. It devoted to the analyses of phonetic terms in two non-related languages:

- 1) English phonetic terms and their meanings in the explanatory dictionaries;
- 2) Uzbek phonetic terms and their meanings in the explanatory dictionaries;
- 3) English and Uzbek phonetic terms and their differentiation and similarities in two non-related languages.